

«TASDIQLAYMAN»

O'zbekiston davlat  
san'at va madaniyat instituti rektori  
N.B.Sayfulayev

2024-yil «          »



**San'atshunoslik (sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi) ta'lim yo'nalishiga  
ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga qabul qilish imtihoni  
BAHOLASH MEZONI**

Talabgorga quyidagi mavzular bo'yicha savollar beriladi va umumiy maksimal 100 balgacha baholanadi. 67 va undan yuqori ball to'plagan talabgor suhbatdan o'tgan hisoblanadi


<b>№</b>	<b>Mavzular</b>	<b>Maksimal ball</b>
1.	Mamlakatda o'zbek san'ati va san'atshunosligini rivojlantirishga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunishi bo'yicha:	25
2.	San'atshunoslik (sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi) ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (sohaning mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini tushunishi, unga qiziqishini namoyon etishi) bo'yicha:	25
3.	San'atshunoslik (sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi) ta'lim yo'nalishining kasbiy xususiyatlari (ilmiy izlanishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlilik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari) bo'yicha:	25
4.	San'atshunoslik (sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi) ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha:	25
<b>Jami</b>		<b>100</b>

**Berilgan savollarga talabgorning javobini baholash me'zoni**

<b>№</b>	<b>Baholash me'zonlari</b>	<b>Ball</b>
1.	Qo'yilgan savolga talabgor tomonidan to'liq, batafsil javob berilib, mavzu haqida bilimi ko'rsatilsa va mavzuning asosiy qoidalari ishonchli tarzda ochib berilganda. Javobda aniq tushunchalar, nazariy va tarixiylikning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda ifodalanganda. Tushunchalarni	22-25

	ifodalashda, javob berish jarayonida talabgor tomonidan mustaqil ravishda xatolar tuzatilishi mumkin.	
2.	Savolga to'liq, batafsil javob berilib, mavzuning asosiy qoidalari aniq ochib berilganda. Javobda aniq tuzilma hamda tushunchalar, nazariy va tarixiy jaryonlarning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda ifodalanganda. Javobda suhbat komissiyasi a'zolari yordamida talabgor tomonidan tuzatilgan kamchiliklar bo'lishi mumkin.	18-21
3.	Berilgan savollarga to'liq va batafsil javob berilmaganda. Javobning mantiqiyligi va ketma-ketligi buzilganda. Fikrini bayon qilishda, atamalardan foydalanishda xatolarga yo'l qo'yilganda. Talabgor soxa xususiyatlarini anglay olmaganda. Bilimlarni konkretlashtirishda va ularning asosiy qoidalarini faqat o'qituvchi yordamida misollar bilan isbotlashi mumkin. Talabgor nutqida tuzatishlar talab qilinganda.	14-17
4.	Talabgor savol mavzusi bo'yicha sezilarli xatolarga yo'l qo'yganda, bilimlarni ifodalovchi to'liq bo'lmagan javob berganda. Tarqoq yoki mantiqsiz fikrlarni keltirganda. Savollarni to'liq anglamaganda. Xulosa va javoblarning isboti mavjud bo'lmaganda. Nutqi aniq va ravon bo'lmaganida. Suhbat komissiyasi a'zolarining qo'shimcha va aniqlovchi savollari talabgorning nafaqat berilgan savolga, balki mavzu bo'yicha boshqa savollariga ham qoniqarsiz javob berganda.	0-13

**Qabul komissiyasi mas'ul kotibi**



**S.Turatov**